

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.19/04.07.2023.1.88.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI**

**MAKSUDOV MIRZOXID MIRVASIKOVICH**

**INSPEKSIYALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA  
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI  
TAKOMILLASHTIRISH  
(“O‘zkomnazorat” davlat inspeksiyasi misolida)**

**08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025-yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)  
in economic sciences**

**Maksudov Mirzoxid Mirvasikovich**

Inspeksiyalar faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish (“O‘zkomnazorat” davlat inspeksiyasi misolida)..... 3

**Максудов Мирзохид Мирвасикович**

Совершенствование использования цифровых технологий в повышении эффективности деятельности Инспекции (на примере государственной инспекции «Узкомназорат»)..... 23

**Maksudov Mirzoxid Mirvasikovich**

Improving the use of digital technologies to increase the efficiency of Inspection activities (Based on the example of the state inspection “Uzkomnazorat”)..... 45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 52

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.19/04.07.2023.1.88.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI  
HUZURIDAGI BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI**

**MAKSUDOV MIRZOXID MIRVASIKOVICH**

**INSPEKSIYALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA  
RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI  
TAKOMILLASHTIRISH  
(“O‘zkomnazorat” davlat inspeksiyasi misolida)**

**08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025-yil**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Iqt2327 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) tayyorlangan va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi rasmiy web-saytida (<https://rgsbm.uz>) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, akademik

**Rasmiy opponentlar:**

**Qo'chqorov Toxir Safarovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**To'rayev Shavkat Shuxratovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot**

**Toshkent xalqaro universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi huzuridagi DSc.19/04.07.2023.1.88.01 raqamli ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashning 2025-yil 22 08 soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: Toshkent shahri, Mirobod ko'chasi, 25-uy Tel.: (+998971) 239-03-05; faks: (+99871) 239-03-03, e-mail: [info@rgsbm.uz](mailto:info@rgsbm.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (9 - raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: Toshkent shahri, Mirobod ko'chasi, 25-uy Tel.: (+998971) 239-03-05; faks: (+99871) 239-03-03, e-mail: [info@rgsbm.uz](mailto:info@rgsbm.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "5" 08 kuni tarqatildi.  
(2025-yil "5" 08 dagi 9 - raqamli reyestr bayonnomasi).



**D.X. Suyunov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,  
professor

**T.U. Qodirov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari  
nomzodi, dotsent

**A.T. Kenjabayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi.** Soʻnggi besh yil ichida dunyoda raqamlashtirish darajasi sezilarli darajada oshdi va bu internet foydalanuvchilari sonining oʻsishi, bulutli hisoblash, sunʼiy intellekt, blokcheyn va kiberxavfsizlikni taʼminlash texnologiyalari va raqamli xizmatlardan foydalanishlar sonini sezilarli oʻsishida namoyon boʻlmoqda. Global innovatsiyalar indeksining 2024-yilgi reytingiga koʻra dunyodagi eng innovatsion iqtisodiyotga ega davlatlar qatorida yuqori pogʻonani Shveysariya, Shvetsiya, Amerika Qoʻshma Shtatlari, Singapur va Buyuk Britaniya egallagan boʻlsa, soʻnggi 10 yil ichida eng tez rivojlanayotgan davlatlar qatoriga Xitoy, Turkiya, Hindiston, Vyetnam va Filippin kirgan<sup>1</sup>.

Shuningdek, Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan eʼlon qilinadigan Elektron hukumat rivojlanishi indeksining natijalariga koʻra dunyo boʻylab raqamlashtirish darajasi oʻsishda davom etib, 2024-yilda 0,638 ga yetgan (2018-yilda mazkur koʻrsatkich 0,55 ga teng). Raqamli boshqaruv reytingida Daniya, Estoniya va Singapur, Koreya Respublikasi, Islandiya, Saudiya Arabistoni, Buyuk Britaniya, Finlyandiya va Niderlandiya yetakchilik qilmoqda<sup>2</sup>.

Bugun raqamlashtirish jarayonida Oʻzbekiston taraqqiyotining yangi bosqichiga oʻtishi, yaʼni raqamli hukumat va raqamli jamiyatga oʻtish mamlakatimizning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanishini taʼminlash, fuqarolarning turmush tarzini yaxshilash va odamlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan. Mazkur yoʻnalishda mamlakatimiz tomonidan olib borilayotgan keng koʻlamdagi islohotlar oʻz samarasini koʻrsatmoqda. Xususan, Birlashgan millatlar tashkilotining 2022-yil natijalariga koʻra, Oʻzbekiston Elektron hukumat rivojlanishi reytingida 0,7265 qiymat bilan 69-oʻrinni egallagan boʻlsa, 2024-yilda 0,7999 indeks hisobiga 6 pogʻona yuqoriga – 63-oʻringa chiqdi<sup>3</sup>.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-noyabrdagi PQ–4024-son “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2020-yil 28-apreldagi PQ–4699-son “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2022-yil 22-avgustdagi PQ–357-son “2022–2023-yillarda AKT sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori, 2020-yil 5-oktyabrdagi PF–6079-son ““Raqamli Oʻzbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi, 2023-yil 24-maydagi PF–76-sonli “Raqamli texnologiyalar va sunʼiy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish toʻgʻrisida”gi farmonlari, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-maydagi 288-son “AKT sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish

<sup>1</sup>Manbaa: Глобальный инновационный индекс 2024 года: верхние строчки рейтинга занимают Швейцария, Швеция, США, Сингапур и Соединенное Королевство; быстрее всего в последние 10 лет растут показатели Китая, Турции, Индии, Вьетнама и Филиппин; над инвестициями в инновации сгущаются тучи. Женева, 26-09-2024 PR/2024/925. [https://www.wipo.int/pressroom/ru/articles/2024/article\\_0013.html](https://www.wipo.int/pressroom/ru/articles/2024/article_0013.html).

<sup>2</sup>Manbaa: <https://intosairussia.org/ru/novosti-media/kratkie-obzory/indeks-razvitiya-elektronnogo-pravitelstva-2024-g.html>.

<sup>3</sup>Manbaa: “Raqamli hukumat: istiqbolli rejalar va toʻsiqlar” forumida raqamlashtirish sohasidagi eng dolzarb masalalar yuzasidan fikrlar almashildi 2024-09-18. <https://digital.uz/news/view/22002/>.

chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 31-iyuldagi 475-son "Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari qabul qilingan<sup>4</sup> va yana bir qancha qonun hujjatlarida raqamli iqtisodiyot muhitida raqamli texnologiyalarni boshqarishni yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilganligi ushbu dissertatsiya mavzusining bugungi kunda qanchalik dolzarb va zarurligini ko'rsatmoqda.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish"ning ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'plab xorijlik olimlar, jumladan, E.Brayanyolfson, D.Tapscott, B.Panshin, N.Lane, M.Gumaxa va Z.Jamaluddin, M.Lips kabi xorij olimlari tomonidan o'rganilgan<sup>5</sup>.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan N.K.Nores, A.A.Stankevich, D.V.Yevtyanova, M.V.Tiranova, N.M.Pashenko, M.L.Kalujskiy va T.N.Yudinalarning ilmiy ishlarida o'rganilgan<sup>6</sup>.

O'zbekistonlik olimlardan raqamlashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va internet texnologiyalarini joriy etish, axborot texnologiyalarining iqtisodiyotni turli sohalariga va innovatsion rivojlanishiga ta'siri, duch kelinayotgan muammolar S.S.G'ulomov, T.Sh.Shodiyev, A.N.Aripov, A.T.Shermuxammedov, B.Yu.Xodiyev, I.Ye.Jukovskaya, T.S.Kuchkarov, A.T.Kenjabayev, Z.M.Otakuziyeva, N.F.G'ulomova va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan<sup>7</sup>.

<sup>4</sup> <https://lex.uz/>

<sup>5</sup> Brynjolfsson, E. and A. McAfee. 2014. *The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies*. New York: W. W. Norton & Company; Thomas L. Mesenbourg, *Measuring the digital economy*, U.S. Bureau of the Census, 2001.; Tapscott Don. *The Digital Economy: Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence*, 1996; Паньшин, Б. *Цифровая экономика: особенности и тенденции развития* / Б. Паньшин // *Наука и инновации*. – 2016. – Т. 3. – № 157. – С. 17-20.; Lane Neal. *Advancing the Digital Economy into the 21st Century* (Assistant to the US President for Science and Technology), 1999; [https://www.elgaronline.com/edcollchap-oa/book/9781803923895/book-part-978180392389510.xml?utm\\_source=chatgpt.com&tab\\_body=abstract-copy1](https://www.elgaronline.com/edcollchap-oa/book/9781803923895/book-part-978180392389510.xml?utm_source=chatgpt.com&tab_body=abstract-copy1).

<sup>6</sup> Норец Н.К., Станкевич А.А., *Цифровая экономика: состояние и перспективм развития*, Инновационные кластерм в цифровой экономике: теория и практика: трудм научно-практической конференции, 2017; Т.Н.Юдина, *Осмысление цифровой экономики*, «Экономика и бизнес», 2016; 57. Евтянова Д.В., Тиранова М.В. *Цифровая экономика как механизм эффективной экологической и экономической политики* // Интернет-журнал «НАУКОВЕДЕНИЕ» Том 9, №6 2017; <https://inlnk.ru/20ADZA>.

<sup>7</sup> S.S. G'ulomov, A.T. Shermuxammedov. *Development of digital economy in the republic of Uzbekistan*. VII Uzbek-Indonesian Joint international scientific and practical conference "Innovative development of entrepreneurship" with the framework of scientific and research project "Global economic challenges and national economy development" Tashkent-Jakarta, 2018, September.-180-183 p.; Кучкаров Т.С. *Совершенствование информационной системы казначейства Республики Узбекистан в условиях цифровой экономики*: Автореферат диссертации доктора экономических наук (DSc) по специальности 08.00.14 Информационные системы и технологии в экономике. Ташкент. 2019. 76 б.; А.Т.Кенжабаев, М.М.Икрамов *Перспективм развития ИКТ и электронное правительство в экономике Узбекистана*// *Экономика, статистика и информатика*, 2015. №2. 221-223 б.; Ходиев Б.Ю. *Узбекистан: построение цифровой экономики* // *Российский внешнеэкономический вестник*. 2017. № 12. 3-12 б.; Жуковская И.Е. *Совершенствование методологии использования информационно-коммуникационнм технологий в статистической деятельности в условиях формирования цифровой экономики*: Автореф. дис. докт. эконом. наук (DSc) по специальности 08.00.14 - Информационнме системм в технологии в экономике. Ташкент. 2020. 53 б.; Z.M.Otakuziyeva. *Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida korxonalar faoliyatining barqarorligini ta'minlash yo'llari*: 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya mutaxassisligi

Yuqorida qayd etilgan olimlarning ilmiy izlanishlari axborot-kommunikatsiyalar sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalarini o'rganishga salmoqli hissa qo'shgan, biroq inspeksiya faoliyatini raqamlashtirish masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Xususan, inspeksiyalar faoliyati yetarli darajada o'rganilmaganligi mazkur yo'nalishda ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruratini belgilab beradi va tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi ilmiy tadqiqot rejasiga muvofiq "Inspeksiyalar faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish ("O'zkomnazorat" davlat inspeksiyasi misolida)" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** inspeksiyalar faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

inspeksiyalar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy qilishdagi xalqaro tajribalarni o'rganish;

respublikadagi inspeksiyalarda joriy etilgan axborot tizimlar va resurslarning holatini o'rganish va uning tahlilini amalga oshirish;

"O'zkomnazorat" davlat inspeksiyasida mavjud axborot tizimlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

raqamlashtirish yo'nalishida yuklatilgan vazifalarning ijro holati bo'yicha olingan tahliliy ma'lumotlarni guruhlariga ajratish hamda ularni baholash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

"O'zkomnazorat" davlat inspeksiyasi nazorat funksiyalarini amalga oshirish jarayonlariga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali nazorat faoliyatini takomillashtirish istiqbollari prognozlashtirish.

**Tadqiqotning obyekt** sifatida iqtisodiyot sharoitida faoliyat yurituvchi inspeksiyalar, xususan "O'zkomnazorat" davlat inspeksiyasi tanlab olingan.

**Tadqiqot predmet**ini "O'zkomnazorat" davlat inspeksiyasiga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali uning faoliyati samaradorligini oshirishga oid munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqot jarayonida adabiyotlar tahlili, statistik tahlil, bashorat qilish, istiqbolli tahlil, ekspert baholash, bashoratlash kabi usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

"O'zkomnazorat" davlat inspeksiyasida axborotlarni qayta ishlash imkonini beruvchi, yagona autentifikatsiya va identifikatsiya jarayonlarini amaliyotga joriy etish bo'yicha raqamli platformaning konseptual sxemasini tatbiq etish orqali

---

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) Avtoreferati 2024.; N.F.G'ulomova. O'zbekiston hududlarida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish tizimini takomillashtirish: 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya mutaxassisligi Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Avtoreferati, 2021.

mavjud axborot tizimlarini integratsiya qilish hamda takomillashtirish taklifi ishlab chiqilgan;

uslubiy yondashuvga ko'ra "raqamlashtirish jarayonlarining samaradorligi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali resurslardan foydalanishni optimallashtirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarining tezkorligi, aniqligi va sifatini oshirish, iqtisodiy faoliyat natijadorligini yaxshilash darajasiga iqtisodiy samara, investitsiyalarning rentabelligi, operatsiyalar xarajatlarining kamayishi va yaratilgan qo'shimcha qiymat orqali baholash jihatidan takomillashtirilgan;

"O'zkomnazorat" davlat inspeksiyasining raqamlashtirish yo'nalishida yuklatilgan vazifalarni nazorat qilish funksiyasini avtomatlashtirish orqali takomillashtirish natijasida statistik ma'lumotlarning bajarilish darajasi bo'yicha "yashil" ( $BD_y = 71-100$  ball), "sariq" ( $BD_s = 55-71$  ball), "qizil" ( $BD_q = 55$  dan past ball) guruhlariga ajratish asosida baholash imkoni yaratilgan;

"O'zkomnazorat" davlat inspeksiyasida joriy etilgan "Yagona reyting baholash" axborot tizimi orqali respublikamizning raqamlashtirish darajasini aniqlashda sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanishning 2027-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

"O'zkomnazorat" davlat inspeksiyasida joriy etilgan axborot tizimlarini integratsiya qilish hamda yagona autentifikatsiya va identifikatsiya jarayonlarini amaliyotga joriy etish bo'yicha raqamli platformani yaratish taklif etilgan;

davlat organlari va tashkilotlariga raqamlashtirish yo'nalishida yuklatilgan vazifalarni yagona tizimda tasniflash va tizimlashtirishni ta'minlovchi axborot tizimining prinsipial sxemasi yaratilgan;

"O'zkomnazorat" davlat inspeksiyasining nazorat funksiyasini avtomatlashtirishning metodologik asoslarini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omil va muammolar tizimlashtirilgan, mazkur omillarni baholash va muammolarni hal etish bo'yicha mualliflik metodikasi ishlab chiqilgan;

"O'zkomnazorat" davlat inspeksiyasining raqamlashtirish yo'nalishida yuklatilgan vazifalarni nazorat qilish funksiyasini avtomatlashtirishga ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan;

"O'zkomnazorat" davlat inspeksiyasida joriy etilgan "Yagona reyting baholash" axborot tizimi orqali respublikamizning raqamlashtirish darajasini aniqlashda sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanishning 2027-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llanilgan yondashuvning maqsadga muvofiqligi, uning doirasida foydalanilgan nazariy tahlillar rasmiy manbalardan olinganligi, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va Raqamli texnologiyalar vazirligi ma'lumotlariga asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ulardan nafaqat davlat organlari va tashkilotlariga raqamlashtirish yo'nalishida yuklatilgan vazifalarni nazorat qilish, balki raqamli

iqtisodiyot sharoitida boshqa sohalarda nazorat qilish funksiyasi mexanizmini takomillashtirishga, yuklanayotgan yangi vazifa va loyihalarni tahlil qilishga, samaradorligini baholashga, o'zgarish dinamikasini prognozlashga oid maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkin.

Raqamli iqtisodiyotda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari faoliyatini yanada rivojlantirish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, shuningdek, iqtisodiyot va telekommunikatsiya yo'nalishlaridagi oliy o'quv yurtlarida "Innovatsion menejment", "Iqtisodiyotda axborot tizimlari", "Raqamli marketing" singari fanlardan o'quv dasturlari, o'quv-uslubiy majmualar, ma'ruzalar matni, keys stadilar, o'quv qo'llanma va darsliklar tayyorlashda ilmiy-uslubiy manbaa sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Inspeksiyalar faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish ("O'zkomnazorat" davlat inspeksiyasi misolida) bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

"O'zkomnazorat" davlat inspeksiyasida axborotlarni qayta ishlash imkonini beruvchi, yagona autentifikatsiya va identifikatsiya jarayonlarini amaliyotga joriy etish bo'yicha raqamli platformaning konseptual sxemasini tatbiq etish orqali mavjud axborot tizimlarini integratsiya qilish hamda takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasining 2022-yil 27-dekabrda 03-13/1900-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida sarf-xarajatlarni 10 foizga kamaytirish hamda ish unumdorligining oshirilishiga erishilgan;

uslubiy yondashuvga ko'ra "raqamlashtirish jarayonlarining samaradorligi" tushunchasining iqtisodiy mazmunini raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali resurslardan foydalanishni optimallashtirish, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarining tezkorligi, aniqligi va sifatini oshirish, iqtisodiy faoliyat natijadorligini yaxshilash darajasiga iqtisodiy samara, investitsiyalarning rentabelligi, operatsiyalar xarajatlarining kamayishi va yaratilgan qo'shimcha qiymat orqali baholash jihatidan takomillashtirish bilan bog'liq nazariy-uslubiy ma'lumotlardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Elektron tijorat" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 25-noyabrda 388-sonli buyrug'iga asosan №388-119 raqam bilan darslik sifatida ro'yxatga olingan). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy samara, investitsiyalarning rentabelligi, operatsiyalar xarajatlarining kamayishi va yaratilgan qo'shimcha qiymat orqali baholash jihatidan takomillashtirilgan raqamlashtirish jarayonlarining samaradorligi tushunchasi bo'yicha nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

"O'zkomnazorat" davlat inspeksiyasining raqamlashtirish yo'nalishida yuklatilgan vazifalarni nazorat qilish funksiyasini avtomatlashtirish orqali takomillashtirish natijasida statistik ma'lumotlarning bajarilish darajasi bo'yicha

“yashil” ( $BD_y = 71-100$  ball), “sariq” ( $BD_s = 55-71$  ball), “qizil” ( $BD_q = 55$  dan past ball) guruhlarga ajratish asosida baholash taklifi O‘zbekiston Respublikasi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo‘yicha davlat inspeksiyasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo‘yicha davlat inspeksiyasining 2022-yil 27-dekabrda 03-13/1900-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida raqamlashtirish yo‘nalishida yuklatilgan vazifalarni nazorat qilishda statistik ma‘lumotlarning bajarilishni baholashda aniqlik darajasini ta‘minlash imkoni yaratilgan;

“O‘zkomnazorat” davlat inspeksiyasida joriy etilgan “Yagona reyting baholash” axborot tizimida sun‘iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanishning 2027-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlari O‘zbekiston Respublikasi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo‘yicha davlat inspeksiyasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo‘yicha davlat inspeksiyasining 2022-yil 27-dekabrda 03-13/1900-son ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida “O‘zkomnazorat” davlat inspeksiyasida joriy etilgan “Yagona reyting baholash” axborot tizimida sun‘iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanishning asosiy parametrlari o‘rtasidagi muvofiqlik va aniqlikni ta‘minlash imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari jami 8 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma‘ruza qilingan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusiga taalluqli 8 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan 2 ta mahalliy jurnallarda va 2 ta xorijiy jurnallarda hamda 4 ta maqola tezislar respublikada tashkillashtirilgan xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallarida chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 139 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi, zururligi asoslangan, maqsadi va vazifalari belgilangan, obykti hamda predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijasida olingan xulosalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar talab darajasida keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Inspeksiyalar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni qo‘llashning nazariy va ilmiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida mamlakatimizda olib borilayotgan raqamlashtirish jarayonlarida inspeksiyalar

faoliyatini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni qo'llashning ahamiyati va o'rni ko'rsatilgan, raqamli texnologiyalarni qo'llashning metodologik jihatlari o'rganilgan.

Mamlakatimizda raqamlashtirish jarayonini faol rivojlantirish jarayonida inspeksiyalar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha mavjud bir qator muammolarga duch kelinmoqda, jumladan:

davlat organlari va tashkilotlarining elektron ma'lumotlarini saqlash va qayta ishlash uchun infratuzilma va imkoniyatlari yetarli darajada emasligi;

xizmat va servislarni raqamlashtirish sohasida yagona davlat siyosati sust tashkillashtirilganligi sababli aholining raqamli hujjatlar va xizmatlarga ishonchi yo'qligi, shuningdek, ularni davlat organlari va sud hokimiyati tomonidan qabul qilinishidagi muammolar;

axborot resurslari va tizimlarini yaratish va joriy qilishda yagona identifikatorlar, tasniflagichlar va elektron hukumat ma'lumotlari ishlatilmasligi;

davlat xizmatlarini elektron shaklga o'tkazishning dolzarbligini baholash tizimining mavjud emasligi;

raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha loyihalarni davlat tomonidan moliyalashtirishning yetarli emasligi, shuningdek, byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'larini jalb etishni rag'batlantirish mexanizmlarining mavjud emasligi;

amalga oshirilayotgan loyihalarning narxlarini va samaradorligini hisoblashning samarali mexanizmlari mavjud emasligi hamda loyihalarni amalga oshirish samaradorligini monitoring qilish tizimi joriy etilmaganligi sanab o'tilgan.

Mazkur muammolarni bartaraf etishda ustuvor yo'nalishlar sifatida quyidagilar olingan, bular:

raqamli texnologiyalarni joriy etish, telekommunikatsiya va pochta aloqasi sohalari, raqamli iqtisodiyot va raqamli hukumat dasturlarini amalga oshirish, kosmik va sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, "davlat – fuqaro" va "davlat – tadbirkor" tamoyili asosida xizmat va servislarni raqamlashtirish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, rivojlantirish va ustuvor yo'nalishlarni belgilash;

davlat idoralari faoliyatini to'liq raqamlashtirishni ko'zda tutuvchi "Elektron hukumat" tizimining yangi bosqichi – "Raqamli hukumat" tizimiga o'tish;

axborot tizimlari va resurslari asosida hududlarda zamonaviy boshqaruv uslublarini joriy etishni nazarda tutuvchi "Raqamli hudud" dasturini amalga oshirish;

raqamli industriyani rivojlantirish, mazkur sohada texnoparklar faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali mahalliy va xorijiy kompaniyalar uchun qulay sharoitlar yaratish;

raqamli texnologiyalar sohasida ta'limni rivojlantirish, jumladan, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish;

IT– industriya uchun qulay sharoit yaratish orqali mamlakatimizni "IT-HUB"ga aylantirish va xizmatlar eksportini oshirish;

davlat va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida joriy etilgan axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarning foydalanish samaradorligi ustidan tizimli nazoratni yo'lga qo'yish;


axborot texnologiyalarini joriy etish va ko'rsatilayotgan elektron xizmatlar

sifati ustidan samarali raqamli nazoratni yoʻlga qoʻyish – davlat va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat hamda xoʻjalik boshqaruvi organlarida axborot tizimlari va resurslarini joriy etish jarayonlarini muvofiqlashtirish;

zamonaviy va sifatli raqamli infratuzilmani rivojlantirish, bunda soha, tarmoq va hududlarni raqamlashtirishda ustuvor yoʻnalishlarni ishlab chiqish, sohalar kesimida raqamlashtirish boʻyicha oʻsish nuqtalarini aniqlash va amalga oshirish lozim boʻlgan loyihalarni shakllantirish;

aholi, tadbirkorlik subyektlari hamda davlat organlari va tashkilotlari oʻrtasidagi munosabatlarni raqamlashtirish, shuningdek, raqamli xizmatlar va servislardan foydalanish uchun qulay sharoitlar yaratish.

Soʻnggi uch yil mobaynida Oʻzbekiston Respublikasida inspeksiyalar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali rivojlanishning asosiy koʻrsatkichlari tahlili shuni koʻrsatmoqdaki, har yili inspeksiyalar tomonidan koʻrsatiladigan interaktiv xizmatlar sonining koʻpayishi qayd etilmoqda, axborot tizimlari hamda dasturiy taʼminotlar ishlab chiqilmoqda, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari takomillashtirilmoqda. Shu oʻrinda taʼkidlash kerakki, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi inspeksiyalar faoliyati samaradorligini oshishiga yordam beradi. Shuningdek, mamlakatda raqamlashtirish yoʻnalishida olib borilayotgan islohotlar oʻz samarasini berayotganligini, 2022-yilgi xalqaro reytinglarda Oʻzbekistonning raqamlashtirish boʻyicha oʻrni sezilarli yuqorilganligini koʻrish mumkin. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan har ikki yilda bir marta oʻtkaziladigan Elektron hukumat reytingidagi (E-Government Survey) statistika boʻyicha Oʻzbekiston, BMTga aʼzo 193 ta davlat orasida 2016-yilda 80-oʻrinni, 2018-yilda 81-oʻrinni, 2020-yilda 87-oʻrin, 2022-yilda 69-oʻrin va 2024-yilda 63-oʻrinni egallab, 2022-yilga nisbatan 6 pogʻonaga koʻtarilgan (1-rasm).



**1-rasm. Oʻzbekiston Respublikasining Birlashgan Millatlar Tashkiloti (E-Government Development Index) reytingida tutgan oʻrni<sup>8</sup>**

Shuningdek, mamlakatimizda inspeksiyalar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni jadal joriy etish orqali, nazorat sifatini oshirish va rivojlantirish

<sup>8</sup> <https://mitc.gov.uz> – Oʻzbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining rasmiy sayti.

uchun joriy etilgan raqamli texnologiyalarning hozirgi holati tahlil qilingan. Xususan, ta'lim, qishloq xo'jaligi, agrosanoat yo'nalishlarida inspeksiyalar tomonidan qo'llanilayotgan texnologiyalar batafsil yoritilgan. Bundan tashqari, inspeksiyalar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy qilishda xalqaro tajriba o'rganilgan.

Dissertatsiyaning **“O'zkomnazorat” davlat inspeksiyasi faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo'llash amaliyoti**” deb nomlangan ikkinchi bobida, “O'zkomnazorat” davlat inspeksiyasi faoliyatida foydalanilayotgan avtomatlashtirilgan axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarning hozirgi holati tahlil qilinib, tahlil natijalari ko'rsatilgan. Shuningdek, “O'zkomnazorat” davlat inspeksiyasi faoliyatini avtomatlashtirish maqsadida joriy etilgan axborot tizim va mobil ilovalar, xususan, “Jismoniy va yuridik shaxslardan kelgan murojaatlarni qayd etish” axborot tizimi, “Qurilishi tugallangan telekommunikatsiya obyektlarini foydalanishga qabul qilish” axborot tizimi, “Mualliflik va turdosh huquqlar sohasidagi qonunbuzilishlar reyestri” axborot tizimi, “O'zkomnazorat” davlat inspeksiyasida aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan munosabatlarni yanada avtomatlashtirish maqsadida yaratilgan “Xalq nazorati” mobil ilovasi, “Raqamli nazorat” axborot tizimlarining asosiy maqsad va vazifalari, mazkur axborot tizimlarni joriy etish orqali erishilgan natijalar yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan. “O'zkomnazorat” davlat inspeksiyasi faoliyatiga raqamli texnologiyalarni keng joriy qilish, bu nazorat tizimini yagona konseptual asosda ishlab chiqish, “O'zkomnazorat” davlat inspeksiyasiga yuklatilgan vazifa, funksiyalarni amalga oshirishda nazoratning konseptual tizimlarini integratsiya qilish imkonini beruvchi kompleks nazoratni joriy etish demakdir. Bu, “O'zkomnazorat” davlat inspeksiyasining nazorat jarayonlarini tavsiflashning yagona usullaridan foydalanish orqali nazoratning barcha jabhalarini kompleks statistik hisobga olish muammosini hal qilish imkonini beradi. Buning uchun quyidagi vazifalarni hal qilish kerak:

“O'zkomnazorat” davlat inspeksiyasida qo'llaniladigan integratsiyalashgan nazoratning konseptual tizimi standartlarini ishlab chiqish va tasdiqlash. Ushbu vazifalarni amalga oshirish nazorat uslubiyatini xalqaro standartlarni to'liq qo'llash va nazoratning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda yanada rivojlantirish; nazorat natijalari hisoblarini tuzish uslubiyatini ishlab chiqish va umuman nazorat statistikasini integratsiyalash;

“O'zkomnazorat” davlat inspeksiyasi faoliyatida joriy etilgan barcha axborot tizimlarini o'zaro integratsiyalashuvini ta'minlash;

o'tkaziladigan monitoring jarayonlariga raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali faoliyatni tizimlashtirish;

har tomonlama tahliliy va amaliy tadqiqotlar asosida raqamlashtirish jarayonlarini ishlab chiqarish va iqtisodiyot tarmoqlariga ta'sirini baholash va kelgusida mamlakat iqtisodiyotining raqamli transformatsiyasini kengaytirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish;

axborot texnologiyalari sohasida autsorsing xizmatlari bozorini rivojlantirish uchun zarur tashkiliy-texnik va moliyaviy-iqtisodiy sharoitlarni yaratish;

axborot texnologiyalari sohasida autsorsing xizmatlari bozorini rivojlantirish

uchun zarur tashkiliy-texnik va moliyaviy-iqtisodiy sharoitlarni yaratilganligi ustidan monitoring o'tkazilishini yo'lga qo'yish;

“O'zkomnazorat” davlat inspeksiyasi faoliyatiga raqamli texnologiyalarni jadal joriy etish va ularning amaliyotiga ta'siri va yangi raqamli xizmatlar yoki mahsulotlar paydo bo'lishi ta'sirini hisobga olgan holda qonunchilik bazasini takomillashtirish mexanizmlarini shakllantirish;

axborot texnologiyalari sohasida amalga oshirilayotgan ishlarni nazorat qilishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlanmalari ishlab chiqilishini rivojlantirish.

“Raqamli platforma” ilg'or texnologiyalar va dasturiy ta'minotdan foydalanish orqali ko'plab tarkibiy qismlarni, jumladan, yagona axborot makonidagi ishlab chiqarish, aholi, tovarlar, xizmatlar va moliya kabi tarkibiy qismlarni birlashtirishga imkon beradi (2-rasm).

Platformaning maqsadi axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida qurilishi tugallangan telekommunikatsiya obyektlari doimiy foydalanishga qabul qilish va xizmat ko'rsatish sifati yuzasidan jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushayotgan murojaatlarni ko'rib chiqish, o'tkaziladigan nazorat (monitoring, o'rganish va tekshirishlar) natijalari bo'yicha shakllantirilgan ma'lumotlarni hisobini yuritish va tahlil qilish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun “O'zkomnazorat” davlat inspeksiyasida joriy etilgan axborot tizimlarini yagona platformaga integratsiya qilish va mazkur tizim orqali “O'zkomnazorat” inspeksiyasi faoliyati, hisobotlari va tahliliy ma'lumotlarni elektron interaktiv shaklga o'tkazish hisoblanadi, jumladan:

“O'zkomnazorat” davlat inspeksiyasining markaziy apparat bo'lim va hududiy inspeksiyalar faoliyatini avtomatlashtirish;

markaziy apparat bo'limlari, hududiy inspeksiyalar va xo'jalik yurituvchi subyektlar, davlat organlari o'rtasidagi rasmiy yozishmalar (so'rov xatlari, ko'rsatmalar, eslatma, ogohlantirish xatlari va h.k.) ma'lumotlari bazasini yuritish, ular bo'yicha hisobotlarni shakllantirish;


“O'zkomnazorat” davlat inspeksiyasi faoliyatiga joriy etilgan axborot tizimlari va resurslarini yagona platformada aks ettirish hamda barcha tizimlarga yagona autentifikatsiya va identifikatsiya jarayonlarini o'z ichiga olish;

aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya sohasida faoliyat yuritadigan xo'jalik yurituvchi subyektlar, davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan alohida foydalanuvchi sifatida markaziy apparat bo'limlari tomonidan chiqarilgan so'rov xatlari, ko'rsatmalar, kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlarni ijrosi yuzasidan ma'lumotlarni kiritish imkoniyati;

“O'zkomnazorat” davlat inspeksiyasi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi ichki me'yoriy hujjatlar, aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar, normalar, standartlar, rahbariy hujjatlarni va boshqa turdagi hujjatlarni yagona ma'lumotlar bazasini shakllantirish;

“O'zkomnazorat” davlat inspeksiyasi xodimlarini yurtimiz va jahondagi aloqa va axborot texnologiyalari to'g'risida yangiliklar bilan tanishtirib borish;

“O'zkomnazorat” davlat inspeksiyasida qabul qilingan yangi lokal hujjatlar, tug'ilgan kun, yaqin soat va 1-2 kunda bo'lishi rejalashtirilgan tadbirlar to'g'risida xabar berish.



**2-rasm. Raqamli tahliliy platforma asosida “O‘zkomnazorat” davlat inspeksiyasi faoliyatidagi avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini modernizatsiya qilishning taklif qilinayotgan sxemasi<sup>9</sup>**

“O‘zkomnazorat” davlat inspeksiyasi faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etish bilan bog‘liq xarajatlarning batafsil tahlili ko‘rib chiqilgan. Xarajatlarni baholash ushbu o‘tishning iqtisodiy samaradorligi va hayotiylikini aniqlashda hal qiluvchi qadamdir. Ushbu tahlil turli xil xarajat komponentlariga qaratilgan bo‘lib, ularning har biri raqamli texnologiyalarni qabul qilishning moliyaviy oqibatlarini tushunishda muhim ro‘l o‘ynaydi.

**1-jadval**

**Xarajatlarning tarkibiy qismlari<sup>10</sup>**

1.	Dastlabki investitsiya xarajatlari (IX):	Uskuna	150 000 AQSh dollari
		Dasturiy ta’minot litsenziyalari	80 000 AQSh dollari
		Infratuzilmani o‘zgartirishlar	30 000 AQSh dollari
		O‘quv xarajatlari	20 000 AQSh dollari
2.	Operatsion xarajatlar (OX):	Tizim boshqaruvi uchun xodimlarning ish haqi (yiliga)	80 000 AQSh dollari
		Texnik xizmat ko‘rsatish va qo‘llab-quvvatlash (yiliga)	16 000 AQSh dollari
		Ma’lumotlarni saqlash va bulutli xizmatlar (yiliga)	25 000 AQSh dollari
3.	Trening xarajatlar (TX):		20 000 AQSh dollari
4.	Kutish xarajatlari (KX):		10 000 AQSh dollari

Amalga oshirishning umumiy xarajatlarini quyidagicha hisoblash mumkin:

$$\text{Umumiy xarajat (T)} = \text{IX} + (\text{OX} * \text{Faoliyatdagi yillar soni}) + \text{TX} + \text{KX}.$$

Loyihaning amal qilish muddati 5 yil deb hisoblansa:

<sup>9</sup> Muallif tomonidan tadqiqotlar asosida shakllantirildi.

<sup>10</sup> Barcha narxlar muallif tomonidan bugungi kundagi jahon va O‘zbekiston texnologiyalar bozoridagi o‘rtacha narxlar asosida shakllantirildi.

$$T = 280\,000 + (121\,000 * 5 \text{ yil}) + 20\,000 + 10\,000 = 915\,000 \text{ AQSh dollari.}$$

Xarajatlarning har tomonlama tahlili shuni ko'rsatadiki, 5 yil davomida "O'zkomnazorat" davlat inspeksiyasi uchun raqamli texnologiyalarni joriy etishning umumiy qiymati 915 000 AQSh dollarini tashkil etadi.

Ushbu moliyaviy investitsiyalar raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali amalga oshiriladigan prognoz qilingan foyda va ish samaradorligini oshirish bilan taqqoslanadi.

Endi "O'zkomnazorat" davlat inspeksiyasi faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etishning rentabelligi va investitsiyalar rentabelligi (ROI) baholanadi. Bu tahlil raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi va hayotiylikini har tomonlama tushunishga qaratilgan.

Investitsiyalarning rentabelligi (ROI) investitsiyalarning rentabelligini baholovchi asosiy moliyaviy ko'rsatkichdir. U quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$ROI = [(F - T) / T] * 100$$

Bu yerda:

F - sof foyda bo'lib, iqtisodiy foyda va umumiy xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida hisoblanadi.

Oldingi bo'limda jami xarajatlar 915 000 AQSh dollari sifatida belgilangan.

Iqtisodiy foyda:

Sof foyda va ROI ni hisoblash uchun raqamli texnologiyalarni joriy etishdan kutilayotgan iqtisodiy foydani baholash kerak. Bu imtiyozlar unumdorlikni oshirish, xarajatlarni tejash va boshqa sezilarli daromadlarni o'z ichiga olishi mumkin. Ushbu misol uchun, kutilayotgan iqtisodiy foyda 5 yil davomida 1 500 000 AQSh dollarini tashkil qiladi deb faraz qilinsa.

$$ROI = [(1\,500\,000 \text{ USD} - 915\,000 \text{ USD}) / 915\,000 \text{ USD}] * 100 = 63,93 \%$$

## 2-jadval

### "O'zkomnazorat" davlat inspeksiyasida raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorlik kutilmalari<sup>11</sup>

Metrik	Miqdor
Umumiy xarajatlar (T)	USD 915,000
Iqtisodiy foyda	USD 1,500,000
Sarmoya pul	USD 585,000
Sarmoya qaytish (ROI)	63.93%

\*Barcha narxlar muallif tomonidan bugungi kundagi jahon va O'zbekiston texnologiyalar bozorida o'rtacha narxlar asosida shakllantirildi.

Hisoblangan ROI taxminan 63,93 foizni tashkil etishi shuni ko'rsatadiki, "O'zkomnazorat" davlat inspeksiyasida raqamli texnologiyalarni joriy etishga investitsiya qilingan har bir dollardan taxminan 1,64 AQSh dollari hisobida daromad

<sup>11</sup> Barcha narxlar muallif tomonidan bugungi kundagi jahon va O'zbekiston texnologiyalar bozorida o'rtacha narxlar asosida shakllantirilgan.

keladi. Boshqacha qilib aytganda, bu orqali investitsiya ijobiy daromad keltirishi va uni moliyaviy jihatdan foydali bo'lishi kutilmoqda.

Ijobiy ROI 63,93 % "O'zkomnazorat" davlat inspeksiyasida raqamli texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy jihatdan foydali ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalarni joriy etishning to'liq moliyaviy bahosi keltirilgan bo'lib, bunda katta xarajatlar bo'lsa-da, kutilayotgan foyda va ROI, "O'zkomnazorat" davlat inspeksiyasi faoliyati doirasida ushbu amalga oshirishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning **"Inspeksiyalar faoliyatida raqamli texnologiyalarni tatbiq qilish istiqbollari"** deb nomlangan uchinchi bobida raqamlashtirish yo'nalishida belgilangan vazifalarni ro'yxatdan o'tkazish, yig'ish, saqlash, tahlil qilish va ijrosini nazorat qilish maqsadida yaratilgan "Yagona reyting baholash" axborot tizimi asosiy vazifa va funksiyalari yoritilgan hamda 2023–2027-yillik davr uchun kutilayotgan samaradorlik ko'rsatkichlari hisoblangan.

Hukumatimiz tomonidan raqamlashtirish yo'nalishida ishlab chiqilgan dasturlar, Yo'l-xaritalari, loyihalarda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilot va idoralarga yuklatilgan vazifalarni ro'yxatdan o'tkazish, yig'ish, saqlash, tahlil qilish va ijrosini nazorat qilish hamda "O'zkomnazorat" davlat inspeksiyasi faoliyatini raqamlashtirish maqsadida "Yagona reyting baholash" axborot tizimi ishlab chiqilgan.

Bunda, **axborot tizimning asosiy vazifasi etib quyidagilar belgilangan:**

AKT sohasida, "Elektron hukumat" tizimi, Raqamli iqtisodiyot va raqamli transformatsiyalash yo'nalishida qabul qilingan hukumat qarorlari, dasturlar, yo'l xaritalari, loyihalar va maqsadli ko'rsatkichlarda davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shuningdek, boshqa idoralar, muassasalar va tashkilotlarga, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga tegishli bo'lgan vazifalarni yagona tizimda tasniflash va tizimlashtirish;

ma'lumotlarni saralash, ularni qayta ishlash, ijrosini nazorat qilish;

istalgan vaqtda ma'lumotlar to'plamidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lish;

ma'lumotlar bazasidan ma'lumot turlari bo'yicha hisobot shakllarini yaratish;

ma'lumotlarni qayta ishlash va ulardan foydalanishning yagona, shaffof tizimini yaratish;

kelib tushadigan ma'lumotlarni yagona ma'lumotlar omborida saqlash.

Axborot tizimini yaratish maqsadlari:

AKT sohasida, "Elektron hukumat" tizimi, Raqamli iqtisodiyot va raqamli transformatsiyalash yo'nalishida qabul qilingan hukumat, dasturlar, yo'l xaritalari, loyihalar va maqsadli ko'rsatkichlardagi vazifalarni qayta ishlashda vaqtni tejash, ish unumdorligini oshirish;

vazifalarni va ularning ijrosini "O'zkomnazorat" davlat inspeksiyasi rahbariyati tomonidan (onlayn tarzda) kuzatib, ularni tahlil qilish;

"O'zkomnazorat" davlat inspeksiyasining hududiy bo'linmalarida ma'muriy tartiblarni optimallashtirish;

vakolatli organlar tomonidan vazifalarni to'liq, o'z vaqtida va sifatli bajarilishini nazorat qilish;

mavjud ma'lumotlar asosida turli ma'lumotlar bazasini shakllantirish va tahlil

qilishga imkon beruvchi resurslarni ishlab chiqish;

ma'lumotlarni tahlil va monitoring qilish jarayonlarida yuzaga kelgan muammolar uchun tezkor tegishli chora-tadbirlarni amalga oshiruvchi mukammal mexanizmni yaratish;

qog'oz sarfini kamaytirish.

Qo'yilgan vazifalarni baholash kriteriyasi asosan to'rtta ko'rsatkichlardir:

A) Bajarish jarayonda (ko'k rang) – muddati kelmagan;

B) Bajarilgan (yashil rang) – belgilangan muddatgacha;

V) To'liq bajarilmagan (sariq rang) – muddati tugagan;

G) Bajarilmagan (qizil rang) – muddati tugagan.

Izoh:

